

“UZGASTRADE” AJ  
Yagona aksidorning  
2024-yil “8” fevraldagi  
1-sonli qaroriga  
2-ILOVA

### “TASDIQLANGAN”

“UZGASTRADE” AJ  
yagona aksiyadorining  
2024-yil “8” fevraldagi  
1 -son qarori bilan

## “UZGASTRADE” AKSIYADORLIK JAMIyatining Kuzatuv KENGASHI TO‘G‘RISIDAGI NIZOM

Toshkent-2024-yil



“UZGASTRADE” AK

## **MUNDARIJA:**

- 1.** Umumiy qoidalar
- 2.** Kuzatuv kengashining vakolatlari.
- 3.** Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash, tayinlash va vakolatlarini tugatish.
- 4.** Kuzatuv kengashining raisi.
- 5.** Kuzatuv kengashining majlisi.
- 6.** Kuzatuv kengashi a'zolarining huquqlari va majburiyatlari.
- 7.** Kuzatuv kengashi a'zolarini mukofotlash tartibi va miqdori.
- 8.** Kuzatuv kengashi a'zolarining javobgarligi.
- 9.** Kuzatuv kengashining kotibi.

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrirda), “UzGasTrade” AJ Ustavi (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagи “2021 - 2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarни boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 166-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 apreldagi “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi PF – 101 - sonli farmoni talablariga va Ustavga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Nizomda Jamiyatning kuzatuv kengashini (keyingi o‘rinlarda – kuzatuv kengashi) tashkil etish va boshqarish, uning a’zolarini saylash, shuningdek ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklarini belgilab beruvchi me’yorlar keltirilgan.

3. Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiyoq rahbarlikni amalga oshiradi, Qonun va Ustav bilan aksiyadorlar umumiyoq yig‘ilishining mutlaq vakolatiga kiritilgan masalalarni hal qilish bundan mustasno.

4. Kuzatuv kengashi o‘z faoliyatida Qonun, Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyalari va **Korporativ boshqaruв** qoidalari, Jamiyat Ustavi, ushbu Nizom va Jamiyatning boshqa ichki hujjalalariga amal qiladi.

5. Jamiyat Kuzatuv kengashining asosiy vazifalari quyidagilar sanaladi:

– Jamiyatning o‘rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining amalga oshirilishini ta’minalash;

– Jamiyat Ijroiya organi (Boshqaruvi) faoliyati va Jamiyatning yillik (qisqa muddatli) biznes-rejalarining bajarilishini nazorat qilish;

– Jamiyatda axborot shaffofigini, Jamiyat to‘g‘risidagi ochiq ma’lumotlarning to‘liqligini, ishonchliligi va xolisligini ta’minalash hamda Jamiyatning axborot siyosati amalga oshirilishini nazorat qilish;

– Jamiyatda ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimini tashkil etish ustidan nazorat;

– Jamiyatning dividend siyosati amalga oshirilishini ta’minalash, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish;

– Jamiyat aksiyadorlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.

6. Jamiyat Kuzatuv kengashining a’zolari Qonun va Jamiyat Ustaviga muvofiq aksiyadorlar umumiyoq yig‘ilishi tomonidan kamida 7 (yetti) nafardan iborat bo‘lib, ularning kamida 2 (ikki) nafari mustaqil a’zo bo‘ladi 3 (uch) yil muddatga saylanadi.

7. Kuzatuv kengashining a’zolari va kotibiga o‘z majburiyatlarini bajarish davrida mukofotlar to‘lanishi va/yoki ular tomonidan kuzatuv kengashining vazifalari bajarilishi bilan bog‘liq xarajatlar qoplab berilishi mumkin.

## II. KUZATUV KENGASHINING VAKOLATLARI

8 Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatiga quyidagilar kiradi.

1) Jamiyatning rivojlanish strategiyasiga erishish bo‘yicha qabul qilinayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Jamiyatning ijroiya organi hisobotini muntazam tinglash bilan Jamiyat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash. Zaruratga ko‘ra, Jamiyatni rivojlantirish rejalarini ishlab chiqishni tashkil etish va ularda ko‘rsatilgan maqsadlarga erishilishini monitoring qilish uchun ekspertlarni jalg qilish;

2) Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan navbatdagi va navbatdan tashqari qarorlar qabul qilish uchun takliflar kiritish, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

3) Jamiyat Ustavining 10.7-bandidagi 1) va **18)** kichik bandda nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi yig‘ilishiga hal qilish uchun kiritish;

4) mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

5) Jamiyat ustav fondini ko‘paytirish va Jamiyat Ustaviga, shuningdek unga bog‘liq bo‘lgan tasdiq hujjatlariga (aksiyalar va prospekt chiqarilishi to‘g‘risida qaror) tegishli o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilish masalalari;

6) oldin ro‘yxatga olingan qimmatli qog‘ozlar chiqarilishiga o‘zgartishlar kiritish;

7) auditorlik tekshiruvi o‘tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno) to‘g‘risida qaror qabul qilish, auditorlik tashkiloti va uning xizmatlari uchun eng yuqori to‘lov miqdorini belgilash. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq yillik moliyaviy hisobotlarning auditni bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

8) aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;

9) Jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash. Bunda kelgusi yil uchun mo‘ljallangan Jamiyatning biznes-rejsi joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmagan holda tasdiqlanishi lozim;

10) jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar chiqarilishi to‘g‘risida qaror qabul qilish;

11) hosila qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

12) Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

13) Jamiyat Boshqaruvi a’zolarini tayinlash (boshqaruv raisidan tashqari), ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;

14) Jamiyatning ijroiya organiga to‘lanadigan mukofotlar va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagи 207-sonli “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarini va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risidagi” qarori bilan belgilangan samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlarini bajarganlik uchun ko‘rsatilgan to‘lov larga bog‘lagan holda ularning eng yuqori miqdorini ma’qullah;

15) Korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyatini tartibga soluvchi nizomni tasdiqlash;

16) Jamiatning ichki audit xizmatini tashkil etish, uning xodimlarini tayinlash, ichki audit to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash, shuningdek uning choraklik hisobotlarini tinglash;

17) Jamiat Ijroiya organi faoliyati bilan bog‘liq har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va ularni Boshqaruv organidan kuzatuv kengashiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun olish. Olingan hujjatlar kuzatuv kengashi va uning a’zolari tomonidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

18) Aksiyalar bo‘yicha dividend hajmi va uni to‘lash tartibi bo‘yicha tavsiyalar berish;

19) Qonunda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlarni tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish (Jamiyat kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda, yirik bitim tuzish masalasi kuzatuv kengashining qarori bilan aksiyadorlarning umumiylig‘ilishiga o‘tkazilishi mumkin);

20) Jamiatning zaxira va boshqa mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

21) Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, Jamiatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

22) Jamiatning filiallarini tashkil qilish va vakolatxonalarini ochish, ularni tugatish;

23) Jamiatning sho‘ba va mustaqil korxonalarini tashkil qilish;

24) Tijorat va notijorat tashkilotlarida Jamiatning ishtiroki bilan bog‘liq bitimlar tuzish;

25) Jamiat tashkiliy tuzilmasining qonunchilik talablariga muvofiqligini ishlab chiqish, amalga oshirish va doimiy ravishda baholash bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

26) Jamiat Ustavi, aksiyadorlar umumiylig‘ilishining qarorlari va qonunchilikda belgilangan chegaralar doirasida xayriya (homiylik) yoki beg‘araz yordamni taqdim etish (olish) va bu haqdagi ma’lumotlarni oshkor etgan holda qaror qabul qilish tartibi, shartlarini belgilash;

27) Jamiatning ijroiya organiga to‘lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorini ma’qullah.

9. Jamiatdagi korporativ boshqaruv tizimini baholash, uni amalga oshirish uchun tanlov asosida mustaqil tashkilotni aniqlash va uning xizmatlari uchun chegaraviy to‘lov miqdorini belgilash to‘g‘risida qaror qabul qilish.

10. Jamiatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish, shuningdek jamiat ustaviga jamiatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish hamda jamiatning e’lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish.

11. Jamiatning ijroiya organi (boshqaruv raisidan tashqari) a’zolarini saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish.

12. Jamiat Kuzatuv kengashining vakolatiga qonunchilikka, Jamiat Ustaviga, Korporativ boshqaruv kodeksiga va Korporativ boshqaruv qoidalariga muvofiq boshqa masalalar bo‘yicha qarorlar ham kiritilishi mumkin.

Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatiga kiritilgan masalalar ko‘rib chiqish uchun Jamiatning ijroiya organiga berilishi mumkin emas.

### **III. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINI SAYLASH, TAYINLASH VA VAKOLATLARINI TUGATISH**

13. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlar umimiy yig'ilishi tomonidan Qonun va Jamiyat Ustavida belgilangan tartibda 3 (uch) yil muddatga saylanadi.

14. Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylangan shaxslar cheklanmagan ravishda qayta saylanishi mumkin.

15. Jamiyatning ijroiya organi rahbari va a'zolari jamiyatning kuzatuv kengashi a'zoligiga saylanishi mumkin emas.

16. Jamiyatda mehnat shartnomasi bo'yicha ishlaydigan shaxslar Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari bo'lishi mumkin emas.

17. Kuzatuv kengashi a'zolari soniga va jamiyatning kuzatuv kengashiga saylangan shaxslarga qo'yiladigan talablar jamiyat ustavida belgilanadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarini saylashda aksiyadorlar kuzatuv kengash tarkibiga kamida 2 (ikki) nafar mustaqil a'zolar kiritish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagি 166-sonli qarori talablariga mos qarorlar qabul qiladi.

18. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni Jamiyat Ustavi bilan belgilanadi va kamida 7 (yetti) kishidan iborat bo'ladi.

19. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan amalga oshiriladi.

20. Kuzatuv kengashi a'zolarini tanlash jarayonida pozitsiyani belgilashda nomzodlarning malakasi, boshqaruv organlaridagi tajribasi, korporativ boshqaruv sohasidagi bilimlari, shu jumladan, qonunchilikda belgilangan hollarda Korporativ boshqaruv ilmiy-o'quv markazi tomonidan berilgan korporativ menejerning malaka attestati mavjudligidan kelib chiqiladi.

21. Kuzatuv kengashi a'zosi uning tarkibidan chiqib ketgan taqdirda, kuzatuv kengashining qolgan a'zolarining vakolatlari bekor qilinmaydi, Kuzatuv kengashi a'zolarining soni Ustavda nazarda tutilgan yetmish besh foizdan kam bo'lган holatlar bundan mustasno.

22. Vafot etgan, ixtiyoriy ravishda o'z vakolatlarini topshirgan, shuningdek boshqa sabablarga ko'ra o'z majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga ega bo'lмаган Kuzatuv kengashi a'zolari tarkibdan chiqqan hisoblanadi.

23. Kuzatuv kengashi a'zolari yoki tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan kuzatuv kengashi a'zosi vafot etgan kundan boshlab, yoki kuzatuv kengashi raisi ixtiyoriy ravishda o'z vakolatlarini topshirganligi to'g'risida kuzatuv kengashi a'zosidan ariza olgandan keyingi kundan boshlab, yoxud Jamiyat tomonidan Kuzatuv kengashi a'zosi o'z vakolatlarini bajara olmasligini tasdiqlovchi hujjatlar olingan kundan boshlab tarkibdan chiqqan deb tan olinadi.

24. Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi, Audit qo'mitasi, Tayinlovlар va haq to'lash qo'mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi hamda boshqa qo'mitalar tashkil etishi mumkin.

25. Jamiyat kuzatuv kengashining Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi raisi uning mustaqil a'zolari orasidan tayinlanadi va mazkur qo'mitaga korxonaning transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlarini doimiy boshqarish vazifalari yuklatiladi.

#### **IV. KUZATUV KENGASHINING RAISI**

26. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi, agar Jamiyat Ustavida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, Kuzatuv kengashi a’zolari tomonidan uning a’zolari orasidan Kuzatuv kengashi a’zolari umumiylar sonining ko‘pchilik ovozi bilan saylanadi.

27. Jamiyat Kuzatuv kengashi, agar Jamiyat Ustavida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, o‘z raisini Kuzatuv kengashi a’zolari umumiylar sonining ko‘pchilik ovozi bilan qayta saylash huquqiga ega.

28. Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi uning ishini tashkil qiladi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularga raislik qiladi, yig‘ilishlarda bayonnomalar yuritilishini tashkil etadi.

29. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi yo‘qligida uning vazifalarini Kuzatuv kengashi a’zolaridan biri bajaradi.

30. Kuzatuv kengashi raisi yoki kuzatuv kengashi vakolat bergen shaxs Jamiyat nomidan Jamiyatning Boshqaruv a’zolari bilan shartnomalarni imzolaydi.

#### **V. KUZATUV KENGASHINING YIG‘ILISHI**

31. Jamiyat Kuzatuv kengashining yig‘ilishi Kuzatuv kengashi raisi tomonidan o‘z tashabbusi bilan, kuzatuv kengashi a’zosining, Jamiyat ijroiya organining, jamiyatning aksiyadorlar umumiylar yig‘ilishi, shuningdek, Jamiyat Ustavida belgilangan boshqa shaxslarning talabiga binoan chaqiriladi.

32. Jamiyat Kuzatuv kengashining yig‘ilishi kuzatuv kengashi a’zosi, boshqaruv, Jamiyatning aksiyadorlar umumiylar yig‘ilishi tomonidan yozma talabnama yuborilgan kundan boshlab o‘n kundan kechiktirmay, shuningdek, Jamiyat Ustavi tomonidan belgilab berilgan boshqa shaxslarning Jamiyat Kuzatuv kengashi yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risida yozma so‘rov yuborgan sanada o‘tkaziladi, aksincha holatda yuqoridaq talabnomani taqdim etgan shaxsga belgilangan muddatda Kuzatuv kengashi o‘tkazishni rad etish asoslab berilgan xat yuboriladi.

Kuzatuv kengashi yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risidagi talabnomada majlis kun tartibiga kiritiladigan masalalar, ularni kiritish sabablari ko‘rsatilgan holda ifodalanishi kerak.

Kuzatuv kengashi yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risidagi talabnomada kuzatuv kengashi yig‘ilishi o‘tkazilishini talab qilgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan shaxslarning talabnomasiga binoan Kuzatuv kengashi yig‘ilishini o‘tkazishni rad etish to‘g‘risida qaror quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin:

– kun tartibiga kiritish uchun taklif qilingan masalalarning birortasi Jamiat kuzatuv kengashining vakolatiga kirmsa;

– kun tartibiga kiritish uchun taklif qilingan masala O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlar” va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun talablariga muvofiq bo‘lmasa.

Jamiyat Kuzatuv kengashining yig‘ilish o‘tkazishni rad etish to‘g‘risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

33. Jamiat kuzatuv kengashi yig‘ilishini o‘tkazish uchun kvorum Jamiat Ustavi bilan belgilanadi, ammo Jamiat kuzatuv kengashining saylangan a’zolari sonining kamida yetmish besh foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

Kuzatuv kengashi yig‘ilishlari videokonferensaloqa tizimi orqali va elektron ovoz (e-VOTE) berish yo‘li bilan o‘tkazilishi mumkin. Bunda agar yig‘ilish videokonferensaloqa tizimi orqali o‘tkazilgan taqdirla, ushbu konferensiyaning elektron tashuvchida videoyozuvi yig‘ilish bayonnomasiga majburiy tartibda ilova qilinadi.

34. Kuzatuv kengashi a’zolari soni Ustavda nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo‘lgan holatda Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig‘ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a’zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiyligi yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qilish huquqiga ega, shuningdek Ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan oldin bekor qilinganda, vaqtincha uning vazifasini bajaruvchisini tayinlaydi.

35. Agar O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari” va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunida va Ustavda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, Jamiat Kuzatuv kengashining yig‘ilishida qarorlar yig‘ilganlarning ko‘philik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiat Kuzatuv kengashi yig‘ilishida masalalarni hal qilishda kuzatuv kengashining har bir a’zosi bitta ovozga ega.

Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilish jarayonida kuzatuv kengashi a’zolarining ovozlari teng bo‘lgan hollarda, jamiyat kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi sanaladi.

Kuzatuv kengashi tarkibida uning a’zolaridan audit bo‘yicha qo‘mita, tayinlash va rag‘batlanirish bo‘yicha qo‘mita va texnik qo‘mitalar tashkil etiladi. Qo‘mitalar o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, Jamiatning ustavi va ushbu qo‘mitalar to‘g‘risidagi ichki nizomlari, shuningdek aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi va jamiyat kuzatuv kengashi qarorlari asosida amalga oshiradilar.

36. Jamiat Kuzatuv kengashining bir a’zosi tomonidan Kuzatuv kengashining boshqa a’zosiga ovoz o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

37. Jamiat Kuzatuv kengashining yig‘ilishida bayonnomasi kuzatuv kengashi a’zolari tomonidan saylangan kotib tomonidan yuritiladi. Kuzatuv kengashi yig‘ilishining bayonnomasi u o‘tkazilganidan keyin o‘n kundan kechiktirmay tuziladi. Yig‘ilish bayonnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- u o‘tkazilgan sana, vaqt va joy;
- yig‘ilishda qatnashgan shaxslar, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar;
- yig‘ilish kun tartibi;
- ovoz berishga qo‘yilgan masalalar, ular bo‘yicha ovoz berish natijalari;
- qabul qilingan qarorlar.

38. Jamiat Kuzatuv kengashi yig‘ilishining bayonnomasi uning rasmiylashtirilishi to‘g‘riliqi uchun javobgar bo‘lgan Jamiat Kuzatuv kengashining yig‘ilishda qatnashgan a’zolari tomonidan imzolanadi. Yig‘ilish elektron ovoz (e-VOTE) berish yo‘li bilan o‘tkazilganda Kuzatuv kengashi kotibi tomonidan ushbu yig‘ilishi natijalari yig‘majildga jamlanadi.

39. Jamiat Kuzatuv kengashining qarorlari Kuzatuv kengashining barcha a’zolari tomonidan sirdan ovoz berish yo‘li bilan (so‘rovnama yo‘li bilan) qabul qilinishi mumkin.

Sirtdan ovoz berish to‘g‘risida qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi tomonidan qabul qilinadi.

40. Sirtdan ovoz berish uchun kuzatuv kengashining barcha a’zolariga sirdan ovoz berish to‘g‘risida xabarnomalar yig‘ilish kun tartibidagi masalalar ko‘rsatilgan holda yuboriladi. Xabarnomaga kun tartibidagi masalalar bo‘yicha materiallar va ovoz berish bulleteni ilova qilinadi. Yozma xabarnomalar Kuzatuv kengashi a’zolariga pochta, faks, elektron yoki boshqa aloqa vositalari orqali yuboriladi.

41. Ovoz berish bulletenlarida Jamiyatning to‘liq nomi, ovozga qo‘yilgan har bir masala va uni ko‘rib chiqish ketma-ketligi, ovoz berishga qo‘yilgan har bir masala bo‘yicha “rozi”, “qarshi” yoki “betaraf” so‘zlari bilan ifodalangan ovoz berish variantlari, to‘ldirilgan bulletenni taqdim etish sanasi bo‘lishi lozim. Bulletenlar yig‘ilish bayonnomasining ajralmas qismi sanaladi.

42. Sirtdan ovoz berish to‘g‘risida xabarnomalar Kuzatuv kengashi a’zolariga to‘ldirilgan bulletenni topshirish uchun belgilangan sanadan kamida 5 kalendar kun avval yuboriladi. Jamiyat kuzatuv kengashi a’zolari tomonidan to‘ldirilgan va imzolangan ovoz berish bulletenlari kuzatuv kengashi kotibiga taqdim etiladi. Bulletenlari bulletenda ko‘rsatilgan to‘ldirilgan bulletenni taqdim etish sanasidan oldin olingan Kuzatuv kengashining a’zolari sirdan ovoz berishda ishtirok etgan deb hisoblanadi. Agar muayyan masala bo‘yicha ovoz berishning mumkin bo‘lgan variantlari ustunlarining bittadan ortig‘ida qandaydir belgi bo‘lsa yoki bulletenda ovoz beruvchi kuzatuv kengashi a’zosining imzosi bo‘lmasa, ushbu masala bo‘yicha ovoz berish bulleteni Kuzatuv kengashi raisi tomonidan to‘liq yoki qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

43. Sirtdan ovoz berish natijalariga ko‘ra Jamiyat Kuzatuv kengashining bayonnomasi tuziladi. Yig‘ilish (sirtdan ovoz berish) bayonnomasi kotib va kuzatuv kengashining raisi tomonidan imzolanadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi a’zolari tomonidan imzolangan ovoz berish bulletenlari ushbu bayonnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

44. Jamiyat Kuzatuv kengashi yig‘ilishining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning ijroiya organiga ijro uchun taqdim etiladi..

## **VI. KUZATUV KENGASHI A’ZOLARINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI**

45. Kuzatuv kengashi a’zolari o‘z huquqlarini amalga oshirishda va o‘z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlari yo‘lida harakat qilishi, Jamiyatga nisbatan vijdanan va oqilonan o‘z huquqlaridan foydalanishi hamda o‘z majburiyatlarini bajarishi, ularga ma’lum bo‘lgan va tijorat sirini tashkil etuvchi Jamiyatning maxfiy ma’lumotlari va hujjatlarini oshkor qilmasliklari shart.

46. Kuzatuv kengashining a’zosi quyidagi huquqlarga ega:

– kuzatuv kengashi yig‘ilishida shaxsan ishtirok etish, kun tartibida ajratilgan vaqt doirasida yig‘ilishda muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha so‘zga chiqish;

– kuzatuv kengashining qarori bilan aksiyadorlik jamiyatining muayyan vaqt davridagi faoliyati, uni rivojlantirish rejalari to‘g‘risida ma’lumot olish;

– kuzatuv kengashi a’zolarining funksiyalarini bajarish bilan bog‘liq xarajatlar uchun mukofot va (yoki) kompensatsiyalar olish.

47. Jamiyat tomonidan bitim tuzilishidan manfaatdor bo‘lgan Kuzatuv kengashining a’zosi bitim tuzilishidan oldin Kuzatuv kengashiga o‘z manfaatdorligi

to‘g‘risida xabar berishi shart, shuningdek muhokamada qatnashish va tegishli qaror qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega emas. Affillangan shaxs bilan bitim tuzish to‘g‘risidagi qaror yig‘ilishda ishtirok etayotgan Jamiat Kuzatuv kengashi a’zolari tomonidan bir ovozdan yoki qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

48. Agar kuzatuv kengashi a’zolari, ularning turmush o‘rtoqlari, ota-onalari, farzandlari, aka-ukalari, opa-singillari, shuningdek ularning barcha affillangan shaxslarining quyidagi hollari bo‘yicha kuzatuv kengashi a’zolari Jamiat tomonidan bitimlar tuzilishida manfaatdor sanaladi:

– shunday bitimning tarafi bo‘lsa yoki unda vakil yoki vositachi sifatida qatnashsa;

– bitim ishtirokchisi bo‘lgan yoki unda vakil yoxud vositachi sifatida qatnashayotgan yuridik shaxs aksiyalarining (ulushlarining, paylarining) yigirma va undan ortiq foiziga egalik qilsa;

– bitim ishtirokchisi bo‘lgan yoki unda vakil yoxud vositachi sifatida qatnashayotgan yuridik shaxsning boshqaruv organlarida lavozimlarni egallab turgan bo‘lsa.

49. Kuzatuv kengashi a’zolari kuzatuv kengashi tomonidan ayrim qarorlarning qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatgani uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita mukofot olish huquqiga ega emas.

50. Kuzatuv kengashi a’zolari shaxsiy boyish maqsadida aksiyadorlik jamiyatining imkoniyatlaridan (mulkiy yoki nomulkiy huquqlar, xo‘jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, aksiyadorlik jamiyatining faoliyati va rejali uchun to‘g‘risidagi ma’lumotlardan) foydalanish huquqiga ega emas.

51. Kuzatuv kengashi a’zolari o‘zlarining lavozim majburiyatlarini vijdonan, shuningdek aksiyadorlik jamiyatining manfaatlari uchun eng yaxshi deb hisoblagan usulda bajarishlari shart.

## **VII. KUZATUV KENGASHI A’ZOLARINING JAVOBGARLIGI**

52. Jamiat Kuzatuv kengashi a’zolari qonunchilikka va Jamiat Ustaviga muvofiq Jamiatni oldida javobgar sanaladi. Bunda ovoz berishda qatnashmagan yoki Jamiatga zarar yetkazgan qarorga qarshi ovoz bergan Jamiat Kuzatuv kengashi a’zolari javobgarlikdan ozod qilinadi, qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

53. Agar Kuzatuv kengashining a’zosi Jamiat Ustavini qo‘pol ravishda buzsa yoki uning harakatlari (harakatsizligi) bilan Jamiatga zarar yetkazsa, aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi uning vakolatlarini muddatidan oldin bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.

Jamiat yoki Jamiatning muomalada bo‘lgan oddiy aksiyalarining kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Kuzatuv kengashi a’zosidan Jamiatga yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risida da’vo bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

## **VIII. KUZATUV KENGASHINING KOTIBI**

54. Kuzatuv kengashining kotibi – Jamiatning Kuzatuv kengashi yoki Boshqaruvi tarkibiga kirmaydigan xodimi, Jamiat Kuzatuv kengashining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilingan qaror asosida tayinlanadi.

55. Jamiyat Kuzatuv kengashining kotibi Jamiyat Kuzatuv kengashining yig‘ilishlarini tayyorlash va o‘tkazish, Jamiyat Kuzatuv kengashi yig‘ilishi uchun materiallar shakllanishini ta’minlash, yig‘ilish bayonnomalarini yuritish bo‘yicha ishlarni amalga oshiradi.

56. Kuzatuv kengashi kotibi vazifasini bajaruvchi Jamiyat xodimi har oy ish intensivligi uchun to‘lov sanasida O‘zbekiston Respublikasida belgilangan miqdorda mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 4 (to‘rt) baravari miqdorida qo‘srimcha haq oladi.